



XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING O'ZBEKISTONGA KIRIB KELISHI VA TA'LIM TIZIMIGA TATBIQ ETILISHI

Mahmudova Namuna

ShahDPI "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi

e-mail: namunayoqubqizi@gmail.com

tel: +998975190598

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8016008>

ARTICLE INFO

Received: 30th May 2023

Accepted: 07th June 2023

Online: 08th June 2023

KEY WORDS

Xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA), konsepsiya, ta'lim yutuqlari va hk.

ABSTRACT

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O'zbekiston Respublikasida qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol sifatida keltirish mumkin. Maqolada O'zbekiston ta'lim tizimiga xalqaro baholash dasturlarining joriy etilishi haqida so'z borgan.

Sifatli kadrlarning yetishib chiqishi, avvalo, ta'lim tizimining sifati va samaradorligiga bog'liq. Shu sababdan O'zbekiston Respublikasida xalqaro standartlarga to'la javob bera oladigan salohiyatli kadrlar ishlab chiqarish muammosiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda ta'lim tizimimizga xalqaro baholash dasturlarini joriy etish, ularda ishtirok etish orqali yurtimiz nufuzi va reytingini oshirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Xalqaro baholash dasturlari jahonning turli mamlakatlarida o'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholashga qaratilgan bo'lib, biz bu iboraga ilk bor O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida duch kelgandik. Mazkur hujjatda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazini tashkil etishga qaror qilinib, uning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib:

- ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;

- ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish;



- umumiy o'рта ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash belgilandi.¹

O'z navbatida kelgusida mamlakatimiz ta'lim sifatini baholash bo'yicha quyidagi xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi ko'zda tutildi:

- PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) - boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholash;

- TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) - 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

- PISA (The Programme for International Student Assessment) - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

- TALIS (The Teaching and Learning International Survey) - umumiy o'рта ta'lim maktablari rahbarlari va o'qituvchilari bilan so'rovnoma o'tkazish orqali maktabda o'qitish va ta'lim olish jarayonlari samaradorligini baholash.

O'zbekistonning xalqaro tadqiqotlarda qatnashishga kirishganiga to'rt yildan ko'proq vaqt o'tdi va "o'tgan davr mobaynida qanday ishlar amalga oshirildi?" degan savol tug'ilishi tabiiy. Umumta'lim muassasalarining xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishini ta'minlashga mas'ul bo'lgan alohida tashkilot — Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi.

Milliy markaz zimmasiga umumiy o'рта ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash, xalqaro baholash dasturlarida qayd etilgan natijalarni boshqa davlatlar bilan taqqoslash va boshqa mas'uliyatli vazifalar yuklatilgan. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan nufuzli xalqaro tashkilotlar o'rtasida hamkorlik aloqalari o'rnatilib, O'zbekistonning PISA va PIRLS dasturlarida ilk marotaba 2021-yilda ishtirok etishi rejalashtirildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur xalqaro tadqiqot orqali o'quvchilarimizning bilimlarini baholash mezonlari va uslubi bugungi kunda mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida mavjud ichki va tashqi baholash mezonlari va topshiriqlaridan tubdan farq qiladi.

PIRLS dasturida 4-sinf o'quvchilarining an'anaviy matnlarni tez, ravon, ifodali o'qiy olishi emas, balki darslikdan tashqari berilgan matnlarni o'qib, uni qanchalik tushunishi va talqin qila olishi hamda fikrlarini ravon tilda yozma bayon eta olish ko'nikmalari baholanadi.

O'tgan davr mobaynida Ta'lim inspeksiyasi va Milliy markaz tomonidan Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xalqaro tadqiqotlarni joriy etish bo'yicha xalqaro tajribalar o'rganilgani, 30 nafarga yaqin mas'ul xodimlarning xorijiy mamlakatlardamalaka oshirishlari, 7 nafar xalqaro ekspert jalb qilinishi, Respublika bo'yicha 260 nafar trener tayyorlanganini birinchi qadamlar sifatida aytish mumkin.

¹O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2018-yil 8-dekabr(lex.uz)



Shuningdek, o'qituvchilar va o'quvchilar uchun PISA va PIRLS dasturlari haqidagi umumiy tushunchalar, namunaviy topshiriqlar, ularni bajarish bo'yicha tavsiyalar va baholash mezonlarini o'z ichiga olgan 4 nomdagi metodik qo'llanmalar yaratildi.

"Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash", "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash", "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash", "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash" deb nomlangan qo'llanmalarning har biri o'n ming nusxadan chop etilib, barcha umumta'lim muassasalari va ta'limni boshqaruv organlariga yetkazib berildi.

Shundan so'ng, 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev imzolagan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida inson kapitalini shakllantirishning asosiy bo'g'ini bo'lgan tizimda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar va ularni hayotga tatbiq etish yo'llari atroflicha belgilab berildi.

Dasturlarning tegishli yo'nalishlari bo'yicha topshiriqlar to'plami, mashq daftarlari ishlab chiqildi. Mazkur topshiriqlarda o'quvchilarning mustaqil ishlab, nostandart vazifalarni yechish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berishga mo'ljallangan onlayn trenajor dasturning dastlabki versiyasi ishga tushirildi.

Umumta'lim maktablari o'qituvchilari va o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash maqsadida Respublika bo'yicha 348 ta tayanch maktab belgilab olindi va qolgan umumta'lim muassasalari ularga biriktirildi.

Respublikadagi pandemiya tufayli karantin sharoitiga qaramasdan, onlayn tarzda barcha tayanch maktablar uchun seminarlar tashkil etilib, unda Milliy markaz mutaxassislari tomonidan o'qish, matematik va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik, ijodiy-kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholash va rivojlantirish mavzularida taqdimotlar o'tkazildi.

Ushbu seminarlarni boshqa maktablar uchun davom ettirish, jumladan, 2020-yil sentyabr oyidan boshlab o'qituvchilar uchun Respublika ta'lim markazi bilan hamkorlikda turkum seminar-trening va davra suhbatlari tashkil etish vazifalari belgilab olindi.

Bundan tashqari, Milliy markaz va xalq ta'limi tizimidagi trener o'qituvchilar bilan hamkorlikda xalqaro baholash dasturlariga munosib tayyorgarlik ko'rish uchun ilg'or xorijiy tajribalar o'rganib chiqilgan holda matematik, tabiiy va o'qish savodxonligini, kreativ fikrlashni rivojlantirish hamda dasturlarning umumiy jarayonlari haqida batafsil ma'lumotlarni o'z ichiga olgan 55 ta qiziqarli videomahsulotlar yaratildi.

Mazkur videomahsulotlar xalqaro baholash dasturlari haqidagi umumiy nazariy tushunchalar berish bilan birga, topshiriqlarni yechish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Xalqaro tadqiqotlar topshiriqlarining ahamiyatli tomoni shundaki, u haqida ilk bor eshitgan yoki ko'rgan shaxs uchun murakkab vazifadek tuyuladi, lekin diqqat bilan topshiriqni yechishga kirishilganida, undagi qiziqarli ma'lumotlardan yangilik olish, mantiqiy fikrlab, javob topish orqali go'yoki yangi marralarni zabt etgandek hissiyot vujudga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida davlat va jamiyat ahamiyatiga molik dolzarb masalalar qatorida ta'lim



sifatini oshirishga, 2021-yildagi xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko'rish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Xalq ta'lim vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, uning huzuridagi Milliy markaz, Toshkent viloyati boshqarmasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbir xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish yo'lida amalga oshirilayotgan vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

References:

1. "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori. 10.12.2018-yil, 09/18/997/2289-son.
2. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni. Toshkent.2019 yil, 29-aprel.
3. A. A. Ismailov, X. J. Daminova va b. Kreativ fikrlashni baholash . T.: "Milliy markaz", 2021, 95 b.
4. A. Ismailov, D. Norboyeva va b. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. Metodik qo'llanma. T.: "Sharq", 2019. 92 bet.
5. A. B. Rajiyev, A. A. Ismailov, J. R. Narziyev va b. O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi. Qo'llanma. Toshkent -2019. 62 bet.
6. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilimini baholashda xalqaro tajribalardan foydalanish: muammo va yechimlar. Vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2020-yil 14-mart. -288 b.
7. Ina V.S.Mullis va Michail O. Martin. PIRLS -2021 aholash qamrov doirasi. Ta'lim sifatini baholash o'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi matbaa bo'limi. Toshkent-2021